

“SAROB” ROMANIDA DAVR VA SHAXS TASVIRI

Pardaboyeva Adiba Shuxrat qizi

Nukus davlat pedagogika instituti o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi.

pardaboyevaadiba@gmail.com

Ilmiy rahbar: f.f.d., dots. S. Matyakupov

Annotatsiya: Abdulla Qahhorning “Sarob” romanini o'zbek va qardosh xalqlarning bir qancha adiblari o'zlari uchun mahorat maktabi, deb bilganlar. Asardagi chuqur psixologik tahlil namunalaridan, xarakter va holat yaratish usullaridan, syujet va kompozitsion yaxlitlikka erishish yo'llaridan, ayniqsa, badiiy tilning jozib tovlanishidan saboq olganlar va olmoqdalar. Roman yaratilgan paytidan buyon adabiyotshunoslikning diqqat markazidan tushmay, hali-hamon qizg'in bahslarga sabab bo'lmoqda. Ushbu maqolada “Sarob” romanining tanqidchiliklarga uchragani va badiiy tahlili berilgan.

Kalit so'zlar: Sarob, tanqidchilik, davr, xiyonat, Saidiy, ustozlar, Munisxon, sevgi, do'stlik, tushkunlik.

ОБРАЗ ЭПОХИ И ЛИЧНОСТИ В РОМАНЕ "МИРАЖ"

Пардабоева Адиба Шухрат кизи

Студент по направлению Узбекский язык и литература Нукусского государственного педагогического института.

pardaboyevaadiba@gmail.com

Научный руководитель: д.ф.н, доцент С. Матякупов

Аннотация: Роман Абдуллы Каххора “Мираж” многие писатели узбекского и братского народов считали для себя школой мастерства. На примерах глубокого психологического анализа в произведении, способах создания характера и ситуации, способах достижения сюжетной и композиционной целостности, особенно привлекательности художественного языка, извлекаются и извлекаются уроки. Роман не выпадает из поля зрения литературоведения с момента его создания и до сих пор вызывает жаркие споры. В этой статье представлен критический обзор и художественный анализ романа “Мираж”.

Ключевые слова: Мираж, критика, период, предательство, Саиди, учителя, Мунисхан, любовь, дружба, депрессия.

KIRISH

Haqiqiy adabiyot san'atkorlik zavqi bilan yaratilgan go'zal, muhtasham asar demakdir. Kuchli shaxsiyat, betakror uslub, katta iste'dod va ilhom bilan yozilgan asarlarga millatning ruhini ko'taradi, ko'nglini o'stiradi. Yurtimizda hozirgi kunda dunyo adabiyotining bebaho mulki bo'lgan ming-minglab asarlar tarjima qilinib, kitobxonlar qalbidan joy olgani, badiiy tarjima va tarjimashunoslik bo'yicha o'ziga xos ijodiy maktab shakllanganini alohida ta'kidash lozim. O'zbekistonda adabiyot va san'at, madaniyat, ommaviy axborot vositalari, ma'naviyat va ma'rifat biznesga aylanmasligi shart va biz bunga hech qachon yo'l qo'ymaymiz, deb ta'kidlaydi Shavkat Mirziyoyev. Bugungi yoshlar internetdan, elektron adabiyotlardan ko'proq foydalanishi, lekin milliy adabiyotimiz xazinasini internetda targ'ib etish yaxshi yo'lga qo'yilmagani ko'rsatib o'tilgan paytda Prezidentimiz "Adiblar xiyoboni" deb nomlangan internet portali tashkil etish taklifini bildirgandilar va bugungi kunga qadar ko'plab internet dasturlari orqali ham badiiy adabiyotlarni topishimiz, o'qishimiz va ovozli variantlarini ham eshitishimiz imkoniyatlari yaratildi.¹

O'zbek adabiyotshunosligida yaratilgan va shu kungacha eng ko'p bahslarga sabab bo'lgan asarlardan biri – "Sarob" romanidir. Bu asar yuzasidan yozilgan, bildirilgan fikrlarning ko'pligi, xilma-xilligi, bir-biriga qarama-qarshiligi ham unda qandaydir kuchli "badiiy-g'oyaviy sir" yashiringanligini yana bir karra tasdiqlaydi. Qahhorning "Bir xatga javob" idagi quyidagi qisqa izohni keltirishadi: "30-yillarning boshlarida taqdir meni burjo'a millatchilariga ro'para qildi, bular mening nafrat va g'azabimni qo'zg'atdi, ya'ni muvozanatimni buzdi. Men o'zimda uyg'ongan bu tuyg'uni boshqalarda ham uyg'otishga yengib bo'lmas xohish sezdim. Buning natijasi bo'lib "Sarob" romani vujudga keldi". Ushbu roman juda ko'p tanqidlarga ham uchradi, siyosiy asar deb ham ataldi. O'rganilayotgan asarga xolis yondoshmoq uni ustivor ma'naviy aqidalar, adabiyotning umuminsoniy talablari, qolaversa, ayni xalq, millat taqdiri, uning kelajagi bilan bog'liq muammolar aspektida yoritib, so'ng baho-lashga kirishishni talab etadi. Har qancha achchiq va afsuslanarli, hozirga qadar o'rnatib qolgan maqbul qarashlarni o'zgartirib, bezovtalik tug'dirishi mumkin bo'lmasin, bari-bir, haqiqat, faqat haqiqat izlanishi va bundan vahimaga tushmaslik lozim bo'ladi.

Abdulla Qahhorning "Sarob" romanini o'zbek va qardosh xalqlarning bir qancha adiblari o'zlari uchun mahorat maktabi, deb bilganlar. Asardagi chuqur psixologik tahlil namunalaridan, xarakter va holat yaratish usullaridan, syujet va kompozitsion yaxlitlikka erishish yo'llaridan, ayniqsa, badiiy tilning jozib tovlanishidan saboq

¹<https://qalampir.uz/uz/news/prezident-adiblar-khiyoboni-deb-nomlangan-internet-portali-tashkil-etish-tashabbusi-bilan-chik-di-19975>

olganlar va olmoqdalar. Roman yaratilgan paytidan buyon adabiyotshunoslikning diqqat markazidan tushmay, hali-hamon qizg'in bahslarga sabab bo'lmoqda. Asarning g'oyaviy-badiiy xususiyatlarini jiddiy va batafsil tahlil qilgan adabiyotshunoslar O.Sharafiddinov, M.Qo'shjonov, U.Normatov, V.Smironova, M.Sultonova ishlari, nafaqat qahhorshunoslikning, balki o'zbek romanshunosligining ham salmoqli yutuqlari bo'lib qoldi. Biroq "Sarob"ga oid maqolalarda romanning yozilish tarixi, muallifni bu ishga jazm etishida hal qiluvchi rol o'ynagan sabablar haqida bir-birini takrorlovchi taxminiy mulohazalardan nariga o'tilmagan. Yozuvchi asar voqealarini kitobxonga juda ham tushunarli tarzda bayon qilib bergan. O'sha paytdagi davr muammolarini Saidiy va Munisxon obrazlari orqali ochib bergandir balki. Chunki bu romanning yaratilish davri ham hayotning murakkab davri - o'ttizinchi yillarga to'g'ri kelgan. Samimiy muhabbat ila boshlangan asar, bora-bora keskin tus oladi. Saidiy ko'plab do'stlar va shoir-yozuvchilar davrasiga kiradi. O'z hayolida Munisxondan kamchilik qidirib, Soraxonning nuqsonlaridan fazilat yasay boshlaydi. Kitobxonni asarga bog'laydigan va qiziqish uyg'otadigan jihatlaridan biri ham shunda. Abdulla Qahhor romandagi Saidiy va Munisxonning muhabbati orqali davrning juda ko'p chigallik va qarashlarini mahorat bilan ochib bergan. Kitobxon romanni o'qish davomida davr va makondagi bu kabi illatlarni tahlil qilib boraveradi.

Abdulla Qahhor "Sarob" romanida XIX asrning murakkab davri – 20-30 yillardagi ijtimoiy-siyosiy, tarixiy davrni keng miqyosda tasvirlaydi. Mana shunday inqirozli davrda ham o'zbek ziyolilarining ilm-fanga qiziqishi ushbu asarda yaqqol aks ettirgan. Asarning harakatlantiruvchi kuchlari sifatida ham asosan shu qatlam tilga oladi. "Sarob" romanida asosan insonning ichki kechinmalari, ruhiy holati va xulq-atvori haqida keng fikr yuritiladi. Qahhor asarda o'zining badiiy yondashuvini kengaytirgan. "Sarob" romanida makon va zamon tasviri, ichki monologlar, kechinmalar va xotira sahnalari yordamida Saidiy singari qahramonning ruhiy holatini o'qishga yordam beradi.

Abdulla Qahhorning "Sarob" romani nafaqat o'z zamonasi, balki insoniyatning abadiy muammolarini ham ko'taradigan asar hisoblanadi. G'oyaviy-badiiy jihatdan, realizm va psixologizmni mukammal tarzda uyg'unlashtirib, insonning ichki iztiroblarini chuqur ochib beradi. Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar" asaridan keyin ikkinchi cho'qqi hisoblanuvchi "Sarob" romani Abdulla Qahhorning inson ruhiyatini chuqur tahlil qila bilish mahorati nihoyatda ortganligi, insoniy xarakterlarning teran psixologik tahlili vositasida Abdulla Qahhor romanda o'sha davrda bizning mamlakatimizdamillat taqdiri, ravnaqi, baxti uchun kurashganlar dahshatli fojiga uchraganligini ochib berganligi, shu yo'l bilan romanda millatparvarlik g'oyasi tasdiq etilganligiga e'tibor qaratadi.

“Sarob” romanining bosh qahramonlari – Saidiy va Munisxon kutilmaganda dorilfunun qarshisida uchrashib qolishadi. Asta-sekin ularning munosabatlari sevgi-muhabbatga aylanib ketadi. Asarning shu tomoni qiziqki, ikkalasi ham buni tan olishmas edi. Munisxon tan olishdan qo‘rqsa, Saidiy buni aytishdan qo‘rqar edi. Saidiy Munisxonni o‘qishga topshiraman deb institutga borganda uchratib qolgan, harkuni shu qizni ko‘rish uchun ham o‘qishga kirishga intilar edi.

Qizning hujjatlarini olib kirayotganda, “– Kiraymi, a? Ketmay turing...” degani Saidiyning biroz hayajonga solib qo‘ygandi.

O‘sha paytda qizning lab tishlab bosh chayqashi, mayin tovushi ko‘z oldidan ketmas edi. Saidiy o‘sha paytda “Shu qizning boshiga bir falokat tushsa-da, qutqaradigan yagona kishisi men bo‘lsam...”, - deb o‘ylashi Saidiyning Munisxonga befarq emasligini ko‘rsatar edi.¹

Saidiy bir kuni Munisxonga qarata: “Siz, hech bo‘lmasa, eshikning tirqishidan dars eshitishga ham rozidirsiz?” - deb g‘ashiga tegdi. Munisxon qanchalik Saidiyga bo‘lgan munosabatini boshida yashirishga harakat qilib kibr qilmasin, uning tuyg‘ulari yaqqol sezilib turar edi.” - Men...men eng oldingi kursida o‘tirib dars eshitaman.” - degan edi. Bu gaplar shunchaki kim o‘zarga bahslashish emas, ikki insonning bir-biriga bo‘lgan munosabatning muhabbatga aylanayotganligidan darak edi.² Keling endi, Saidiyning xarakteri va ruhiy holatiga, qanaqa inson ekanligiga e‘tiborni qaratamiz: Saidiy yoshlik paytlarida otasi mashina-bosqon, mashina-dam bilan ishlaydigan katta bir korxona ochmoqchi bo‘lib, anchagina temirchilarni to‘playdi va bu ishga talay sarmoya kiritadi. Ish hali boshlanmasidan sinib yer bilan yakson bo‘ladi va Saidiyning otasi o‘zini osadi. O‘sha voqealardan keyin Saidiy hech kimga qo‘shilmaydigan, kamgap ha odamovi inson bo‘lib qoladi. Uning joniga oro kirgan, o‘qishga topshirish fikrini uyg‘otgan yagona do‘sti - Ehson bo‘ladi.

Bugun ham Saidiy o‘qishga topshirib kelgandan, o‘z joyiga yotib olganida Ehson: “Battol g‘ozi, nima bo‘ldi ish chatoqmi?”- dedi. Ehson Saidiy bilan yoshligidan do‘st bo‘lgan, birgalikda “Urfon” maktabiga ham borishgan. Bu kunlarni eslasa Saidiyning hayollariga u bilan bir partada o‘tirib o‘rgangan sharqiylari qulog‘iga eshitilib ketar edi:

Turkistonning dog‘lari vor,

Na go‘zaldi, shimdi og‘lor...³

“Sarob” romanida Munisxonning Saidiyga bo‘lgan munosabatiga ham to‘xtalsak. Munisxonning nazarida, Saidiy nimasi bilandir boshqa studentlar, hatto barcha

¹ Abdulla Qahhor. Sarob (roman). – Toshkent: Zukko kitobxon, 2021. – B.5

² Yuqoridagi manba. – B.7

³ Yuqoridagi manba. – B.8

yigitlardan ajralib turar, u yuvosh, og'ir, yana qobilgina yigit, gapga tez tushunadigan va kishining kayfiyati qanday bo'lsa shunga qarab muomala qilardi.

Munixon Saidiyga bo'lgan munosabatini xolis, beg'araz, garchi o'zi uchun bir qadar erish tuyulsa ham, o'rtoqlik munosabati deb bilar va hammaning shunday qarashini tilardi. Yana aytsak bo'ladiki, Saidiy - odamlarga qo'shib ketishi qiyin edi. Buni Ehsonning do'stlari misolida ham ko'rsak bo'ladi. Saidiy Ehsonning tili bilan aytganda, o'tgan-ketgandan so'zlamaydigan, jahonni kezib ming kishining umri yetmaydigan sarguzasht orttirganida ham tez unutadigan insonlardan edi.

"Sarob" romanini o'qish davomida yana bir narsa e'tiborimni tortdi. Ya'ni asar boshlanishidan qahramonimizning ismi Saidiy bo'lib boshlangan bo'lsa, opasi bilan uchrashib qolgan vaqtda, "Jon Rahimjon uka, o'rgilay...." jumlasini qo'llaganda aslida ismi Rahimjon ekanligi, uning hayotida opasidan bo'lak yaqini yo'qligini ko'rishimiz mumkin. Opasi ukasini juda yaxshi ko'radi, Saidiy avval opasinikida yashagan ammo pochchasi sababli bu uydan ketishga majbur bo'lgan.

Asar voqealarida opasi Saidiyga pochchasi yo'qligida kelib turishini iltimos qilib yolvorishi - jigarchilikning qanchalik kuchli ekanligini ko'rsatib beradi. Saidiyning u uyga bormasligiga sabab esa bitta: "Agar ukang qadam qo'yadigan bo'lsa, menga taloqsan", - pochchasining opasiga aytgan gaplari edi. Shundan keyin Saidiy uydan chiqib ketdi va Ehson bilan yashay boshlagandi.⁴ Asarda ko'rishimiz mumkinki, Saidiy o'qishga topshirishdan oldin, pochchasining uyidaligida muallimlik qilib ko'p pul topadigan, pochchasi esa ko'tara mol oladigan xaridorga qilganday muomala qilib yurar, ovqatning yaxshisi ham Saidiyniki, usiz shishaning og'zi ham ochilmaydigan damlar bo'ladi. Saidiyda Ehsonning gapi bilan o'qish fikri qo'zg'algandan keyin, janjallar ko'paydi, pochchasiga pul tegmay qoldi va oxiri Saidiyni beboshlik, yalqovlik, buzulishda ayblab, hammaga shikoyat qilib chiqdi.

Yozuvchi bu yerda nimani ochib bermoqchi bo'lgan bilasizmi? Hayotda rostan ham bunaqa insonlar uchrab turadi. Siz yaxshi yashagan, yaxshi kiyingan vaqtingizda sizning yoningizda o'zlarini eng yaqinlardek tutishadi. Ammo boshingizga bir kulfat kelganda, siz bilan bir dasturxon atrofida o'tirgan insonlar sizdan yuz o'giradi.

Saidiyning pochchasi esa shunaqa insonlardan edi: hamma narsani o'zining foydasiga ko'zlardi. Saidiyga o'sha davrlar og'ir kechgan deb ayta olaman. Chunki, opasi bilan yiroqlik, pochchasining uyidan janjallar sabab gap ko'paymasin deb ketishi, eng yaqini, suyanib qolgani Ehsonning Moskvaga ketishi Saidiyning mahzunlik kunlariga to'g'ri kelib qoldi. O'zi u uyidan chiqib ketgan kundan boshlab,

⁴ Abdulla Qahhor. Sarob (roman). – Toshkent: Zukko kitobxon, 2021. – B. 11-12,

Ehson va uning do'sti Sharif, yana bir qator tanishlari orasida o'zini musofirday his qilib yashar edi.

Abdulla Qahhorning shunaqa fikrlari bor: “Zaruratsiz, ichki dardsiz, ehtirossiz yozilgan asar o'lik bo'ladi. Bundoq asarga hech qanaqa g'oya, muhim mavzu jon kiritil olmaydi”. “Sarob” romani yozilgan davrlarda juda ko'p tanqidlarga uchragan. Ammo asar siyosiy asar emas, Saidiy va Munisxon munosabatlarini ko'rsatib berish, uvol bo'lgan sevgi, aytilmagan tuyg'ularni ko'rsatib bermochi bo'lgan. Kitobxon asarni o'qir ekan, birnecha tushunarsiz holatlarga duch keladi. Nahotki bir-birini sevadi ammo ayta olmaydi? Yoki aksincha, bir-birini sevadi, harakat qilmaydi, yonidagi begona insonlardan yaxshi fazilatlar qidirib, sevganining yaxshi xislatlarini nuqson deb atay boshlaydi.

Masalan, asar boshida yoqutga o'xshatilgan Munisxon keyinchalik, vaqtlar o'tishi bilan, Saidiy nazarida bir ufqday bo'lib qoladi: unga tomon qancha yursang, u sendan shuncha uzoqlashadi. Munisxon akasi bilan birkuni turmush qurish ustida gap ketib, surishib qoladi va yotgan joyida o'ylay boshlaydi: “Juda ham xotinchalik emas edi, shekilli, nazarimda, shunday ko'ringandir-da,” - akasi bermochi bo'lgan Muxtorxon haqida shunaqa fikrga keladi.⁵

Asarning yana bir qiziqarli tomoni shundaki, Saidiy Soraxondan ko'p nuqsonlar topadi ammo hechkimdan topa olmagan bir fazilat ham topadi. Saidiy birkuni ichib kelib uhlab qoladi, shunda Soraxon xonaga kirib uning oyoq-kiyimini yechib, ustiga ko'rpa yopadi. Choyni bo'lsa bosh qismi tomoniga qo'yib chiqib ketadi. Bu vaqtda Saidiy uyg'oq edi va o'ylanib qoldi: Bu - sovuq choy. O'chib qolgan odamning oyoq kiyimini yechish, ustiga ko'rpa yopishni harkim ham biladi, ammo o'shanday paypaslaganda qo'li yetadigan joyga sovuq choy qo'yish harkimning ham ishi emas! Nahotki Soraxon shuni bilsa! Demak, tuppa-tuzuk! O'sha kundan boshlab Saidiy Saroxonga boshqacha, birinchi martaba uning aft-boshiga tuzukroq qarashga qaror berdi.

Soraxonni Saidiyga yaqin qilgan yana bir obraz- ipdir. Ya'ni, ikkalasi gaplashib turishganida, Saidiyning oq shohi ko'ylagiga qayerdandir ilashgan qizil ipni olib tashlashi edi. Choynak uni hamma qizlardan ajratgan bo'lsa, bu ipni olib tashlashi uni Saidiyga ozgina yaqinroq keltiradi. Oq ko'ylakka qizil ipning yopishib turishi bir nuqson- kamchilik. Har qanday kamchilikni shu kamchilikdan manfaatdor bo'lmagan kishi payqaydi. Demak, aytishimiz mumkinki, Soraxon Saidiyning nuqsonli bo'lishidan manfaatdor emas!⁶

⁵ Abdulla Qahhor. Sarob (roman). – Toshkent: Zukko kitobxon, 2021. – B. 146.

⁶ Abdulla Qahhor. Sarob (roman). – Toshkent: Zukko kitobxon, 2021. – B. 148-149.

Saidiy Soraxondan topgan yana bir fazilati shu edi: Soraxonning ko‘zlari qora, kipriklari bu kungacha ko‘rgani hamma kipriklardan uzun edi. " Soraxon xunuk, bu rost, ammo istarasi issiq",- degan fikrga kela boshladi.

“Ba’zi qizlar chiroyli bo‘lsa ham, istarasi sovuq bo‘ladi, husnda istaraning ahamiyati zo‘r”- deb, nuqsonlardan fazilatlar kashf qilardi. Lekin bu kabi gaplarga biz ham qo‘shilishimiz mumkin. Insonlar tashqi tomondan chiroyli bo‘lmasin, ularning ichki dunyosi boshqacha bo‘ladi. Ba’zi insonlar xunuk va oddiy bo‘lishsa ham, o‘tirib suhbatlashganingda vaqtingga achinmaysan, ichki dunyosi va muomalasi qanchalik sodda va yaxshi ekanligini guvohi bo‘lamiz. Shuning uchun xalqimizda o‘zi chiroyli, ammo amallari xunuk bo‘lgan insonlarga nisbtan bir maqol ishlatiladi: “Usti yaltiroq, ichi qaltiroq”.

Iste‘dod, agar millat taqdiriga daxldor bo‘lsa, zamonning buqalamunligi, siyosatning nayrang va shafqatsizliklari, yolg‘onning barcha darajadagi ko‘rinishlari, hatto jismoniy o‘lim qarshisida ham sobitligi, butunligi va barqarorligi bilan gavdalanadi. O‘rganilayotgan asarga xolis yondoshmoq uni ustivor ma’naviy aqidalar, adabiyotning umuminsoniy talablari, qolaversa, ayni xalq, millat taqdiri, uning kelajagi bilan bog‘liq muammolar aspektida yoritib, so‘ng baholashga kirishishni talab etadi. Har qancha achchiq va afsuslanarli, hozirga qadar o‘rnashib qolgan maqbul qarashlarni o‘zgartirib, bezovtalik tug‘dirishi mumkin bo‘lmasin, bari-bir, Haqiqat, faqat Haqiqat izlanishi va bundan vahimaga tushmaslik lozim bo‘ladi. Chunki bir-ikki avlodning fojiali va samimiy aldanishi hali millatning qismati bo‘lmay, balki bu aldanishni vaqtida sezmoq va undan tegishli xulosa chiqarish kelgusi bo‘g‘inlar barkamolligiga garov bo‘ladi.

Abdulla Qahhorning “Sarob” romanini o‘zbek va qardosh xalqlarning bir qancha adiblari o‘zlari uchun mahorat maktabi, deb bilganlar. Asardagi chuqur psixologik tahlil namunalaridan, xarakter va holat yaratish usullaridan, syujet va kompozitsion yaxlitlikka erishish yo‘llaridan, ayniqsa, badiiy tilning jozib tovlanishidan saboq olganlar va olmoqdalar. Roman yaratilgan paytidan buyon adabiyotshunoslikning diqqat markazidan tushmay, hali-hamon qizg‘in bahslarga sabab bo‘lmoqda.

Asar yakunlarida ko‘rishimiz mumkinki, Saidiy ichki holatida bir qator o‘zgarishlar bo‘ladi va hatto o‘zi tirik ekanligiga ham shubha qilib boshlaydi. O‘sha paytlarda opasining yoniga boradi- yomg‘irli kunlar boshlanishi bilan uzil-kesil shol bo‘lib qolgandi. aidiy so‘ngi kunlarda odamga qo‘shilmaydigan, ba’zan o‘ziga o‘zi gapiradigan bo‘lib qoladi. Ko‘pchilik uni jinniga chiqara boshlaydi. Murodxo‘ja domla ham: “Bunga jinnilik ota merosi, otasi ham jinni bo‘lib o‘zini osgan”, - deydi. Saidiy o‘z-o‘zi bilan ichki ziddiyatlarga kela boshlaydi va oxiri o‘zini o‘ldiraman degan hayollarga boradi.

U bir necha marotaba o'zini o'ldirmoqchi bo'ladi, ammo shu fikr boshiga kelganda ko'ngli hamisha ikkiga bo'linib, biri shu fikrni tasdiqlaganday sukut qilsa, ikkinchisi "Sen hayot jomini endi qo'lingga olding, hali lazzatini bilmaysan, to'xta"-der edi. Lekin birkuni uning ko'ngli bir butun bo'lib pichirlaydi: "Hayot jomini ko'tarding, uning sharbatini tatib ko'rding, shunaqa, ichgan sayin tagidan taxiri chiqa beradi. Bas, endi, hayot bozoridan xarid qilib bo'lding, endi bemaholga qolmasdan qayt"! Asar yakunida Saidiy o'zini qor ko'mganini, uning ko'ziga gulxan bo'lib ko'ringanini, oyog'idan boshlangan karaxtlik asta-sekin boshigacha yetganini bilib, hushidan ketadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –T.: O'zbekiston, 2016.
2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. –T.: O'zbekiston, 2017.
3. Abdulla Qahhor: shaxs va ijodkor. To'plovchi: O.Jo'raboev . – T.: Tamaddun, 2013.
4. Adabiyotimiz faxri: Yashrga tayyorlovchilar: U.Normatov, B.Karimov. – T.: O'zbekiston, 2007.
5. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – T.: O'qituvchi, 2002.
6. Karimov N, Nazarov B., Normatov U., Mamajonov S., Sharafiddinov O. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. – T.: O'qituvchi, 1999.
7. Pardayeva z. Romanning taraqqiyot tamoyillari. // Yoshlik. – 2002. -№5-6,
- 8.Qahhorova K. Chorak asr hamnafas. – T.: Yosh gvardiya, 1987.
9. Qo'shjanov M. Abdulla Qahhor mahorati. – T.: Fan, 1987.
10. Qo'shjanov M,Normatov U.Mahorat sirlari . T.,G'afur G'ulom nomidagi nashriyot,1968.
11. Qayumov L. Adabiy tanqid va ijodiy jarayon // Sharq yulduzi, 1972. - №6.
12. Qosimov U., Karimova Yu. Qahhor ibrati va mahorati. – T.: Tamaddun, 2013.
13. Solijonov Y. Roman kashfiyotlar manbaidir // O'zbekiston adabiyoti va san'ati. – 2003. - №5.
14. Sanjar Sodiq. Abdulla Qahhor ijodi va adabiy tanqid. – T.: Sharq, 2005.
15. Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. – T.: Fan, 2004.
16. Sharafiddinov O. Abdulla Qahhor. – T.: Yosh gvardiya, 1987.
17. Shuhrat Sirojiddinov. Abdulla Qahhor hayoti va ijodi misolida.
18. www.ziyounet.uz
19. <https://kh-davron.uz>
20. <https://nauchniyimpuls.ru/index.php/ni/article/view/4700>